

**MARKAZIY OSIYO XALQLARIDAGI UMUMIYLIK,  
INTEGRATSIYA VA MILLIY TARAQQIYOT MODELLARI, UNING  
IJTIMOIY-FALSAFIY MAZMUNI**

**Haydaraliyev Shuxrat Abdulazizovich**

**Namangan davlat universiteti fakultet dekani**

**tarix fanlari nomzodi, dotsent**

***E-mail: shuxrat\_haydaraliyev@mail.ru***

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlaridagi umumiylik, mintaqaviy integratsiya va milliy taraqqiyot modellari, uning ijtimoiy-falsafiy mazmuni xususida soʻz yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Etnos, etnogenez, mintaqaviy integratsiya, integratsion jarayonlar, milliy taraqqiyot modellari, gumanistik qadriyat, “yaxlit xavfsizlik” tamoyili.

**МОДЕЛИ ОБЩИНЫ, ИНТЕГРАЦИИ И НАЦИОНАЛЬНОГО  
РАЗВИТИЯ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ, ИХ СОЦИАЛЬНО-  
ФИЛОСОФСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ**

**Хайдаралиев Шухрат Абдулазизович**

**Декан факультета Наманганского государственного университета**

**кандидат исторических наук, доцент**

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются общность, региональная интеграция и национальные модели развития народов Центральной Азии, а также ее социально-философское содержание.

**Ключевые слова:** этнос, этногенез, региональная интеграция, интеграционные процессы, модели национального развития, гуманистические ценности, принцип «тотальной безопасности».

**MODELS OF COMMUNITY, INTEGRATION AND NATIONAL  
DEVELOPMENT IN THE PEOPLE OF CENTRAL ASIA, ITS SOCIAL-  
PHILOSOPHICAL CONTENT**

**Haydaraliyev Shukhrat Abdulazizovich**

**Namangan State University Faculty Dean**  
**candidate of history, associate professor**

**Abstract.** This article discusses the commonality, regional integration and national development models of the peoples of Central Asia, as well as its socio-philosophical content.

**Key words:** ethnos, ethnogenesis, regional integration, integration processes, models of national development, humanistic value, the principle of "total security".

**KIRISH.** Ilmiy adabiyotlarda etnos, xalqlarga oid genetik belgilarni aniqlashda ularga taalluqli ijtimoiy guruhlarni tadqiq etish tavsiya etiladi. Shuning uchun ularda ijtimoiy guruh va referent guruh etnos, xalqlar, millatga oid madaniy, psixologik va tarixiy belgilarni aniqlash obyekti sifatida qaraladi. Ba'zi tadqiqotchilar etnos, xalqlarga oid belgilarni etnogenez, xo'jalik madaniy tiplari, antropotsenoz, an'analardan ham qidiradilar. Mazkur yondashuv tadqiqotchilarning xohishi, istagi ifodasigina emas, ular eng avvalo obyektning murakkab, serqirrali, ichki ziddiyatlarga to'la voqelik ekanidan kelib chiqadi. Bunday belgilar hatto etnogenezi umumiy bo'lgan etnoslarga ham taalluqlidir. Masalan, turk etnogenezini o'rgangan L.N.Gumilev va D.Ye.Yeremeyev shunday belgilarni tarixiy-etnografik manbalar asosida ochib berganlar [1].

Markaziy Osiyo xalqlaridagi umumiylik, etnogenezidagi mushtarakliklar nimalardan iborat?

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Tadqiqotchilar etnogenezda bir qator, etnosning, millatning ijtimoiy-tarixiy, madaniy va ma'naviy-ruhiy borlig'ini, ma'lum bir taraqqiyot bosqichlarida passiponarlik yetakchilik rolini bajarganini etnogenezda umumiylik vazifasini bajarganini qayd etadilar.

Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezisi ikki – o'troq va ko'chmanchi hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq. Qirg'iz va qozoq xalqlari etnogenezi ko'chmanchilik an'analari, tojik va o'zbek xalqlarida o'troqlik belgilari ustuvorlik qiladi. Turkmanlarda shimolda ko'chmanchilik an'analari, janubda esa o'troq hayot tarzi kuzatiladi. To'g'ri, keyingi ikki asr davomida mazkur differensiatsiyada

zamonaviylashish, ya'ni Yevropacha hayot tarzi ta'siri ko'zga tashlanadi, biroq yuqoridagi o'ziga xoslik milliy an'analar va mentalitetdan siqib chiqarilgan emas.

Til, lahjalaridagi, yozuv va talaffuzlardagi farqlar tojik, turkman, o'zbek, qirg'iz va qozoq xalqlariga xos xususiyatlarni ifoda etadi. Ushbu o'ziga xoslik har bir etnosning, xalqning ijtimoiy – tarixiy va madaniy paradigmasidan chuqur joy olganki, bugun ularni osongina ajratish mumkin.

Navbatdagi xususiylik lokal madaniyatlar, urf – odatlar va an'analarda namoyon bo'ladi. Masalan, qirg'iz tadqiqotchilarining xulosalariga ko'ra, XX asrda qirg'izlar yarim – yevropalik bo'lib ulgurdi, hozir esa ular ichida "jahon fuqarolari" ga aylanganlar anchagina [2]. Tojik, turkman va o'zbeklar haqida bunday deyish qiyin, chunki ularda milliy o'zlikni asrash, tarixiy, ma'naviy merosni asrash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Markaziy Osiyo davlatlarining tarixiy – etnik jihatdan yaqinligi, ularning bir – birlari bilan munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga undovchi omillardan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligining dastlabki yillaridanoq o'zaro yaqinlashishga, integratsiyaga intilib keladi. Chunki "bu mintaqa har doim u yoki bu shaklda integratsiyalashgan"[3].

Mintaqaviy integratsiyaga undayotgan va sharoit, muhit yaratib berayotgan omillar quyidagilar kiradi: mintaqaviy integratsiya uchun qulay geografik muhit mavjud; mintaqada yashovchi xalqlarning tarixiy – madaniy yaqinligi, aholining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qiladi; mintaqada davlatlari yuqori darajada o'zaro bog'liq; mintaqada yagona ekosistema mavjud; deyarli bir xil bo'lgan davlat tuzilmasiga va institutlarga ega; barcha demokratik huquqiy davlat qurishga intiladi; har bir davlat hududida boshqa davlatga tegishli bo'lgan anklav va hududlar tashqi va ichki destruktiv kuchlar mustaqillikka xavf solmoqda; global integratsiya real voqelikka aylanib bormoqda.

Mintaqaviy integratsiyada sotsiolingvistik integrator sifatida – rus tili muhim rol o'ynamoqda, chunki u Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida keng tarqalgan. Rus tili mintaqa davlatlarining, siyosiy institutlarning ish yuritish tili ham hisoblanadi. Ilmiy, texnikaviy va siyosiy elitalar rus tili asosida shakllangan. Aholining katta

qismi uchun ta'lim va ma'lumot olish, ilm – fanni, texnikani egallash xalqaro muloqotlarga kirishish uchun asosiy vositasi hisoblanadi [4].

Mintaqa davlatlarining barchasida ham ko'p sonli milliy ozchilikni tashkil etuvchi guruhlar mavjud. Bu borada integratsiya – mintaqadagi milliy etnik mojarolarning va separatizm tahdidlarining oldini oladigan vositalardan biri sifatida maydonga chiqadi [5].

Markaziy Osiyo davlatlarining jahon kommunikatsiya tarmoqlariga to'g'ridan – to'g'ri chiqqan olmasliklari ham mintaqadagi davlatlari o'rtasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga undamoqda.

Mintaqaviy integratsiyaga undovchi yana bir sabab – mintaqadagi gidrozahiralardir. Tarix taqozosi bilan daryolarning o'zani bir davlat hududida, irmog'i boshqa davlat hududida joylashib qolgan. Davlatlarda suv zahiralarini yetishmasligi muammosini yaqin kooperatsiya orqali hal etish mumkin.

Ba'zi tadqiqotchilar Qozog'iston Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlarning yetakchisi sifatida ko'rsatsalar, boshqalari aynan O'zbekiston bunday yetakchi bo'lishi mumkinligini bildiradi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Bizning fikrimizcha, mintaqadagi integratsion jarayonlar birgina davlatni yalovbardor qilib ko'rsatish noto'g'ri. Qolaversa, bunday yondashuv mintaqadagi integratsion jarayonlar subyektlari o'rtasida kelishmovchiliklarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shubhasiz, Qozog'iston mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchilaridan biri. Bunga aslida, uning MDH doirasida amalga oshmagan siyosiy tashabbuslarning natijasi sifatida qarash zarurdir. Natijada Qozog'iston bu tashabbuslarni Markaziy Osiyo mintaqasida amalga oshirishga intilmoqda. Shuning uchun ham ba'zi ekspertlar, keyingi yillarda rasmiy Ostonada Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlarda, tashabbuslari nuqtai nazaridan, strategik maqsadlarni ilgari surib, mintaqadagi mavqegini oshira boshladi, deb ko'rsatadilar. O'zbekiston mintaqaviy integratsiyani qo'llab – quvvatlab keldi. Shu bilan birga uning o'z pozitsiyasini mavjud: “...*Birinchidan*, integratsion jarayonlarda barcha teng huquqli ishtirokchi sifatida va o'z ixtiyorlari bilan qatnashmog'i lozim.

*Ikkinchidan*, barcha davlatlar deyarli bir xil huquqiy bazaga va bir xil rivojlanish strategiyasiga ega bo'lishlari kerak. *Uchinchidan*, hech bir davlat boshqalar hisobiga kun kechirmasligi lozim. *To'rtinchidan*, integratsion jarayonlarni zo'raki ravishda jadallashtirish mumkin emas, chunki bu xavflidir. *Beshinchidan*, integratsion jarayonlar har qanday mafkuradan xoli bo'lishlari darkordir"[6].

Mintaqaviy integratsiyada O'zbekistonning o'rni katta. Buni yetakchi davlat rahbarlari, chet el tadqiqotchilari ham qayd etishadi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yildagi Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmanistonga rasmiy tashriflari "raqobatsiz hamkorlik"ka da'vati mintaqaviy integratsiyada yangi bosqich bo'layotganini qo'shni davlatlar arboblari, mutaxassisleri e'tirof etishmoqda [7].

Toshkentning mintaqadagi kuchlar o'rtasida o'ziga xos balans vazifasini o'tayotgani muhim ahamiyatga ega. Buni Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida (2017-yil 19-sentabr) ko'rish mumkin. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan va OSCE ishtirokida 2017 va 2018 yillarda Samarqandda Markaziy Osiyo va O'zbekiston tashqi siyosati masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalardagi chiqishlarida muammoning o'ta dolzarbligi qayd etilgan. Bu borada xalqaro hamkorlikni tubdan yaxshilash, yangi bosqichga ko'tarish lozimligi uqtirilgan.

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiyani ikki yo'nalishda tadqiq etish mumkin. *Birinchisi*, BMT (1945), OBSE (1973), Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti(1985), MDH (1991), Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (2000), ShHT (2001), Turk Sammiti va "NATO ning Tinchlik uchun hamkorlik" programmasi doirasidagi integratsiya, *ikkinchisi*, faqat mintaqaviy xususiyatlarga ega Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamkorligi (1994), Orolni qutqarish hamkorlik jamg'armasi (1992), "Abadiy Do'stlik" shartnomasi (1993), "Orol dengizi va Orol oldi muammolarini, Orol mintaqasini ekologik sog'lomlashtirish va ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish Shartnomasi" (Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Turkmaniston, O'zbekiston 1993-yil 26-martda imzolagan), "Xalqaro suv – energetika konsorsumi tuzish haqida Qaror" (1995), "BMT ning Markaziy Osiyo

iqtisodiyotining maxsus dasturi” (1996) kabi hujjatlar va kelishuvlarga muvofiq amalga oshiriladigan integratsiyalardir.

Birlashgan Millatlar tashkiloti butun davlatlararo integratsiyani global tarzda amalga oshirib kelayotgan institut hisoblanadi. O‘z atrofiga 193 davlatni birlashtirgan bu tashkilot mintaqamizning xalqaro munosabatlarda, jahon muammolarini hal etishda ishtirok qilishga imkon bermoqda. Uning tizimdagi Bosh Assambleya, Xavfsizlik kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, Vasiylik kengashi, Xalqaro Sud, YUNESKO, YUNIDO va boshqa tashkilotlar Markaziy Osiyo respublikalari mustaqil taraqqiyotga o‘tganidan beri turli yordamlar uyushtirib keladi. Bugungi mintaqamiz Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro rivojlanish kooperatsiyasi, Xalqaro valyuta fondi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Osiyo taraqqiyot Banki, Islom konferensiyasi tashkiloti, Xalqaro turizm tashkiloti kabi 40 yaqin uyushmalar Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar o‘rnatgan. Mazkur uyushmalar Mintaqamiz muammolarini hal etishda va global integratsiyani ta‘minlashda muhim rol o‘ynamoqda.

2001-yili tashkil etilgan Shanxay hamkorligi tashkilotiga (ShHT) Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston kirgan. Keyinchalik unga O‘zbekiston ham qo‘shiladi. Bugun unga Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston va boshqa davlatlar ham kirish ishtiyoqini bildirishgan. Bugun ShHT Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasida yetakchilikni egallamoqda [8].

Mintaqaviy integratsiyani shakllantirishga qaratilgan jarayon mustaqillikning boshida, ya‘ni 1992-yildan (Toshkent sammiti), ya‘ni Orol muammosini hal etishga kirishish bilan boshlandi. Bunday uchrashuvlar Olmaota (1992, sentabr), Qizil O‘rda (1993, mart), Nukus (1994, yanvar), Dashxovuz (1995 yil fevral), Toshkent (1997 yil fevral), Olmaota (1998, fevral), Ashxobod (1999 yil aprel) da o‘tkazildi. Orol bo‘yicha “Nukus Deklaratsiyasi”, “Olmaota Deklaratsiyasi”, “Ashxobod Deklaratsiyasi” kabi muxim hujjatlar qabul qilindi. Har bir respublika moddiy va ilmiy – texnologik kuchlari bilan mintaqaviy muammoni hal etishga hissa qo‘shishni o‘z zimmasiga oldi.

**TAHLILLAR VA NATIJALAR.** Mintaqaviy integratsiyaning tub mohiyati va ijtimoiy – falsafiy mazmuni Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasida 1997-yil 10-yanvarda imzolangan “Abadiy Do‘stlik” Shartnomasida mujassamdir. Keyinchalik unga Tojikiston ham qo‘shilgan. 19 ta moddadan iborat bu hujjat mintaqa xalqlarining hamkorlik qilib, do‘stona aloqalar o‘rnatib, xalqlarining tarixiy, ezgu niyatlarini o‘ziga asos qilib olgan holda integratsiyani kafolatlashga ahd qilganini ifoda etadi. Unda davlatlar bir – birlarining mustaqilligini, hududiy butunligini, ichki ishlariga aralashmaslikni, chegaralar daxilsizligini tan olishni, teng huquq asosida o‘zaro foydali aloqalar o‘rnatishni bildiradilar (1-modda). Ular davlatlar mustaqilligiga, hududiy butunligiga xavf soluvchi tahdidlarda bir – biriga keng yordamlar ko‘rsatishni, o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishni o‘z zimmasiga oladilar (2-modda).

Do‘stlik, ijtimoiy – falsafiy nuqtai nazardan umrboqiy, gumanistik qadriyat sifatida qaraladi, uni har qanday utilitar, hatto siyosiy integratsiyaviy jarayonlardan ustun qo‘yishadi. Ammo real hayotiy holatlar va munosabatlarga qiyoslaganda u iqtisodiy, moddiy imkon, munosabatlar bilan ham chegaralanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Bugun Markaziy Osiyo mintaqasida:

- 1) G‘arb tajribasi va Rossiya radikal islohotlariga moyil Qozog‘iston, Qirg‘iziston modeli;
- 2) tarixiy – madaniy an‘analariga tayanadigan O‘zbekiston va Tojikiston traditsionalizm modeli;
- 3) mustaqil rivojlanish, betaraflik yo‘lini tanlagan Turkmaniston modeli shakllangan. To‘g‘ri, mazkur modellar o‘rtasida “Xitoy devori” yo‘q. Ijtimoiy taraqqiyot hech qachon sxematik tarzda, tekis chiziq bo‘ylab kechmaydi. U mudom u yoki bu modeldagi xislatlarni o‘ziga o‘tkazishi, ularga, doimiy bo‘lmasa-da, qisqa davrda ergashishi mumkin.

Milliy taraqqiyot modellari va mintaqaviy integratsiya, geosiyosiy jarayonlar o‘rtasida dialektik bog‘liqlik mavjud. Bugun ulardan qaysi biri birlamchi ekanini aniqlash qiyin. Bu masalalar unchalik muhim ham emas, chunki

milliy taraqqiyot modellarimiz mintaqaviy integratsiya, ularsiz geosiyosiy jarayonlar milliy taraqqiyot modellari va mintaviy integratsiya mavjud bo'lgan joydagina siyosiy voqelik sifatida keladi; agar ular o'rtasida dialektik bog'liqlik inkor qilinsa yoki ular alohida, bir – biriga zid voqeliklar sifatida qaralsa, butun “global uyg'unlik”, bu o'rinda Markaziy Osiyodagi “mintaqaviy garmoniya” fiksiyaga aylanadi, Shunday ekan, hozir har qanday ilmiy tadqiqot ana shu garmoniyaning uyg'unlikni o'zlashtirishi va ularni real voqelikka aylantirish qonuniyatlarini izlashi darkor.

Milliy taraqqiyot modellari, mintaqaviy integratsiya va geosiyosatdan yuqori pog'onadagi globallashuv nafaqat ichki ziddiyatlarga to'la, u ko'pgina qit'alar, xalqlar va guruhlarda salbiy munosabatlar uyg'otmoqda. Globallashuv insoniyat izlayotgan idealni, garmoniyaning berolmayapti, balki, aksincha, milliy taraqqiyot modellari va mintaqaviy integratsiya o'rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirib geosiyosatni bosh berib ko'chaga kiritib qo'ymoqda. G'arb olimlari R. Keonaxe va J. Nay fikriga ko'ra, “informatsion inqilob dunyoga davogar kuch aksilmarkazlashtirilmoqda va davlatlarni o'zaro tenglashtirmadi. U balki, aksincha, teskari ta'sir ko'rsatadi”[9]. Chunki informatsion inqilob asorati barcha davlat va xalqlarni o'z pog'onasiga ko'tarishni emas, balki ularni o'zlariga ishlatishni, “global tog'a” (“Ded Sim”) ning o'ziga yetakchi, “shef” deb bilishini istaydi. “Amerika imperiyasi” (A. Utkin iborasi) milliy taraqqiyot modellarini va ular bilan bog'liq mintaqaviy integratsiyaning, geosiyosatni nazarga ham olmaydi. Ba'zi bir tadqiqotlar vaqt o'tishi bilan ularning globallashuvga moslashuvini” bashorat qiladilar, ammo bu bashoratning amalga oshirishini kutib o'tirish milliy taraqqiyotni yanada orqaga surish bilan barobardir.

**XULOSALAR.** Globallashuv jarayonlarini kuzatish shuni ko'rsatadiki, undagi salbiy tomonlar iqtisodiy zaif, beqaror, ichki nizolar to'la jamiyatlarga, davlatlarga aks ta'sir etadi, hatto ularning taraqqiyotiga xavf solishi mumkin. Demak, global integratsiyada qatnashishda barcha davlatlar, jamiyatlar teng imkoniyatga ega bo'lavermaydi. Ular avvalo mintaqaviy integratsiyalarda,

geosiyosatni shakllantirishda qatnashib, ma'lum bir tajriba to'plab, jahon hamjamiyatida o'z mavqeiga ega bo'ladi.

Ayniqsa Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi bilan mintaqadagi integratsion vaziyat keskin o'zgardi, tarixiy – madaniy hayoti uyg'un, umumiy bo'lgan xalqlarimiz qalbida birlik, birodarlik tuyg'usi qayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasi 72 – sessiyasidagi nutqida Markaziy Osiyo davlatlararo muloqotni mustahkamlash, 2017-yil 10-noyabr Samarqandda BMT shafeligida bo'lib o'tgan, xalqaro konferensiyada Mintaqaviy iqtisodiy forum tashkil etish, transport kommunikatsiyani rivojlantirish bo'yicha umummintaqaviy dasturni ishlab chiqish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyilini yaratish, davlat chegaralarini demarkatsiya qilish, ekologik muammolarni hal etish uchun birlashishni va yaxshi qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash kabi g'oyalarni ilgari surdi [10]. 2016-2019 yillar ichida davlatimiz rahbari qardosh respublikalar Prezidentlari bilan 20 martadan ziyod uchrashdi. Markaziy Osiyoni barqaror taraqqiyot makoniga aylantirishga oid qator takliflarni o'rta qo'ydi. Natijada o'ttizdan ziyod ikki tomonlama siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy – gumanitar sohaga oid muhim hujjatlar imzolandi. 2018-yil 3-sentyabrda Qirg'izistonning Cho'ponota shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorligi Kengashining oltinchi sammitida Sh.M. Mirziyoyev kengash doirasida Savdoni rivojlantirish to'g'risida ko'ptomonlama Bitim, transport integratsiyasi, innovatsion rivojlanish, turizm va madaniy – gumanitar aloqalarni rivojlantirish, buyuk adiblar, olimlar va mutafakkirlar asarlarining yagona elektron katalogini tuzishni, BMT Bosh Assambleyasining “Ma'rifat va bag'rikenglik” bo'yicha maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishga erishish kabi takliflarini kiritdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – Москва: Калашников и К., 1996. – 502 с.; Еремеев Д.Е. Этногенез турок. – Москва, Гл. ред. Вост. лит-ры, 1971.
2. Байбосунов К.С. (Тень-Шань). Нациогениз новой эпохи (Интегральное исследование современного нациобразования). – Бишкек, Турар, 2012.

3. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
4. Эсенов М. Проблемы межгосударственной интеграции в Центральной Азии (к постановке проблемы).// Ж. Россия и мусульманский мир. 1998. №12.
5. Касенов У.Т. Безопасность Центральной Азии: национальные, региональные и глобальные проблемы. – Алматы, Университет “Кайнар”, 1998.
6. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримовнинг чет эл журналистларига берган интервьюси. // Халқ сўзи, 1996, 12 апрель.
7. Халқ сўзи. 2017, 5 сентябрь; Халқ сўзи, 2017. 17 сентябрь.
8. Абдурахманова Г. Альтернативные проекты региональной интеграции с участие стран Центральной Азии: некоторые сравнения// Центральная Азия и Кавказ, 2008, №6(60).
9. Keohane R., Hye J. Power and Interdependence in the Information Age// Foreign Affairs, 1998, October. P.89.
10. “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик”//Халқ сўзи, 2017, 11 ноябрь